

**Aliyev Murod-JDPI, “Falsafa,
tarbiya va huquq ta’limi” kafedrasi o’qituvchisi**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Amir Temur hukmdorligi davrida amalga oshirilgan axborot siyosati to’g’risida atroflicha ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: Amir Temur, xufiya, axborot, ayg’oqchilar, davlat, “Temur tuzuklari”, xalqaro aloqalar

Jamiyat taraqqiyotining rivojlanish bosqichida axborotga bo‘lgan ehtoyoj doim muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Axborot orqali davlat o‘z fuqarolarining huquq va manfaatlarini, zaruriy ichki va tashqi siyosatini olib borgan. Mavjud tizimning samarali yo‘lga qo‘yishda, ichki hamda tashqi xavf, tahdidlardan himoya qilishda axborot omili har qachongidan dolzarb bo‘lgan.

Dunyo tamaddunida chuqur iz qoldirgan A.Temur salatanatini taraqqiqiy etishida axborot omilining ahamiyati haqida so‘z yuritar ekanmiz, “Temur tuzuklari”dagi quyidagi fikrlarni eslab o‘tmoq joizdir: “ raiyat ahvoldidan ogoh bo‘ldim, ulug‘larini og‘a qatorida, kichiklarini farzand o‘rnida ko‘rdim. Har yerning tabiatni, har el va shaharning rasm-u odatlari, mizojidan voqif bo‘lib turdim. Har bir o‘lka va shahar aholisining ashrof-ulug‘lari va buzurglari bilan oshna tutindim. Ularning mizojlariga, tabiatiga to‘g‘ri kelgan, o‘zлari tilagan odamlarini ularga hokim qilib tayinladim. Har bir diyor aholisining ahvoldidan ogoh bo‘lib turdim. Har bir mamlakatning ahvolini, sipoh-u raiyat kayfiyatini, turish-turmushlarini, qilish-qilmishlarini, bular o‘rtalaridagi aloqalarni yozib, menga bildirib turishi uchun diyonatli, to‘g‘ri qalamli kishilardan voqeanavislari (axbornavis-xabarchilar) belgiladim. Bordiyu noto‘g‘ri narsa yozganlari menga ma’lum bo‘lib qolsa, bunday voqeanavislarni jazoladim. Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolat-u insof yuzasidan chora ko‘rdim.”¹.

¹ “Temur tuzuklari”. / A. Temur. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 90 b.

Ko‘rinib turibdiki, A.Temur salatanatida “voqeanavis”larning borligi yurtda bo‘lib turgan voqealarni kunma-kun yozib borib, sultanat hukmdoriga yetkazib turgan. Bugungi kun nuqtai nazaridan olib qaraganda xalqning ahvoli, uning muammo va tashvishlarini hukmdorga yetkazib beruvchi ommaviy axborot vositalari, xalq qabulxonalarini, prezident portallarining tarxiy ildizlari uzoq o‘tmishga bog‘langanligidan dalolat beradi..

Shuningdek, yana tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, Amir Temur davrida axborot siyosati bilan bog‘liq tarixiy ma’lumotlarni biz zamondoshi Ibn Arabshohning asarlarida uchratishimiz mumkin.

“Ibn Arabshohning Amir Temur xufiyalari haqidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Ular dunyodagi turli hollar va yetti iqlimning har bir qarch yerida sodir bo‘lgan omonligi xavf-xatar,adolatu haqsizlik, arzonchiligu qimmatchilik, noxushlik ham shifo topish va keyinchalik yuz beradigan boshqa ishlar to‘g‘risida hukm chiqaradilar. Ibn Arabshoh – Amir Temur razvedkachilarining axborotlari xususida so‘z yurtitb shunday xulosaga keladi.”²

Amir Temurning nafaqat taniqli yurt rahbari bo‘libgina qolmay, yaxshigina tahlilchi-analitik qobiliyati uning axborotlar bilan ishslash mahoratini yanada ochib bergen. “Amir qildimki, - deb yozadi Amir Temur, - mingta tezyurar tuya mingan, mingta ot mingan yelib-yuguruvchi kishini chopqunchi, ming nafar tezyurar piyodani (chopar) etib tayinlasinlarki, turli mamlakatlar, sarhadlarining xabarlarini, qo‘shni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib, huzurimga kelib xabar qilsinlar, toki biron voqea, kor-hol yuz bermasidan burun chora va ilojini qilaylik ”³. Demak, bo‘layotgan hodisa-voqelar haqida xabar to‘plash va davlatni idora qilishda ulardan foydalanish Amir Temur uchun muhim omil bo‘lgan. Shuningdek, “Qarshi qal’asidagi beklarning xotirini jam qilish uchun bu erdan ko‘chib, Xuroson tomonga qarab yo‘lga tushdim. Amu daryosidan kechib o‘tganimda Xuroson tomondan Qarshiga kelayotgan karvonga duch keldim. Karkon boshchisi menga sovg‘alar taqdim etdi. Men undan Xuroson amirlarining hol-ahvolini surishtirdim, Xuroson

² Sodiqov. H “Amir Temur sultanatida xavfsizlik xizmati”, T:2018, B-9

³ O‘sha joyda:14 bet

viloyatiga ketayotganimni izhor etib, ketishlariga ruxsat berdim. Faqat karvonga ayg‘oqchi qo‘sib yubordim va u xabar keltirgunicha daryo sohiliga joylashib, kutdim. Ayg‘oqchi olib kelgan xabarga ko‘ra, karvondagilar Amir Musoga shunday deydilar: «Temurni Amudaryoning narigi yoqasida ko‘rdik, Xuroson tarafga ketayotgan ekan». Bu gap Amir Muso va Amir Xusaynning lashkariga etgach, hammasi xursand bo‘lib o‘yin-kulgu, ayshu-ishratga beriladilar». Bu parchada «ayg‘oqchi» deb atalgan odam bugungi tilda «xufiya» eki «razvedkachi» deb aytildi. Temurbek yov tomonidan olinadigan aniq axborotga qanchalik katta ahamiyat bergani bu erda juda aniq ko‘zga tashlanadi.”⁴

Tarixiy misollarga tayanib shunday xulosa qilish mumkinki, har qanday yangilik, xabar haqiqiy, xolis, to‘liq va tezkorligi bilan baholangani, uning yordamida xalq irodasi yo‘nalitirib turilgani Amir Temurning sultanat boshqruvida tutgan tuzuklaridan bilib olish mumkin. Mamlakat taraqqiyosti, jamyat barqarorlikini ta’minlash, xavf-xatar, tahdidlardan himoya qilishda axborotni birinchilardan bo‘lib tasarruf etsih, qayta ishslash, manfaatlar birligiga moslab yo‘naltirish muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. “Temur tuzuklari”. / A. Temur. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.**
- 2. Sodiqov. H “Amir Temur sultanatida xavfsizlik xizmati”, T:2018.**

⁴ “Temur tuzuklari”. 2005. 41-bet